

MUNOJOT YO'LCHIYEVA IJODIDA O'ZBEK MUSIQASI TALQINI**Toshboyeva Madina***Yunus Rajabiy nomidagi o'zbek milliy musiqa san'ati institute***MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:****MAQOLA TARIXI:***Received:12.10.2025**Revised: 13.10.2025**Accepted:14.10.2025*

Ushbu maqolada O'zbekistonda qahramoni Munojot Yo'lchiyevaning ijodida o'zbek milliy musiqasining ahamiyati, maqomlarimizni ijro etish uslubi va ularning nazariy asoslari keltirib o'tilgan.

KALIT SO'ZLAR:

*mumtoz she'riyat,
g'azallar, maqom, milliy
musiqa, kasbiy
ijrochilik..*

Maqomchilik san'ati o'rta asrlardan Yaqin va O'rta Sharq xalqlarining musiqa madaniyatida yetakchi o'rinni egallab kelgan. Maqomlar mumtoz she'riyat va yuksak darajadagi kasbiy ijrochilik uslublarning rivoji asosida shakllangan bastakorlik ijodi mahsulidir. Sharq olamida maqom ilmu-amaliy hamda nazariy bir butunlikka asoslangan. Uning nazariy jihatini ilk o'rta asrlardagi risolalarda deb bilsak, amaliy jihatini esa o'g'zaki an'anada XX asrga qadar avloddan-avlodga o'tib kelgan bilimda deb bilishimiz mumkin. Musiqa merosimizda maqomlar juda katta o'rin tutadi. Shu sababli maqomlar masalasi musiqashunos va sharqshunos olimlarning diqqatini ko'pdan beri o'ziga jalb etib, Sharq xalqlari musiqa madaniyatida juda katta tarixiy, ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan masalalardan biri bo'lib qoldi. So'nggi yillarda kashf qilinayotgan maqomshunoslikka oid yangi manba sa ma'lumotlar maqomlarimiz tarixiga oydinlik kiritmoqda. San'atkor ilk bor dunyo sahnasiga 1955-yilda Fransiyaning "Dela Vill" teatrida o'tkazilgan hisobot konsertida chiqadi. Shundan keyin u ushbu davlatga juda ko'p bora tashrif buyurib,

Fransiyaning deyarli barcha shaharlarida chiqishlar qiladi. O'sha yillar Londondagi "Elizabeth FFall" san'at saroyida konsert berganida tashkilotchilar va tarjimonlar Sharq mamlakatlaridan birinchi bo'lib bu yerda kuylayotgan san'atkor Munojatxon Yo'lchiyeva ekanligi, shu paytgacha Osiyo davlatlaridan hech kim ushbu sahnada chiqish qilmaganligini, chunki hammaga ham bu sahnada ijro etishga ruxsat berilmasligini, ta'kidlaganlar.

Munajat Yo'lchiyevaning 1595-yili Fransiya, 1557-yil Germaniyada audio albomlari chiqarilib, ko'p nusxalarda sotiladi. 1997-yil xonanda "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalida birinchi o'rin sohibasiga aylanadi. Ular o'z pedagogik faoliyatini 1989-yildan Muxtor Asnrafiy nomidagi Toshkent davlat konservatoriyasida Sharq musiqasi kafedrasida boshlagan. Ilk o'qituvchilik davrlarida tarbiyalagan shogirdlaridan Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti "Maqom xonandaligi" kafedrasida dotsenti Mahfuza Karimova, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Dilfuza Rahimova qahramonimizning ilk shogirdlaridan. Orada ma'lum vaqt ta'tilga chiqib, tanaffus qilgan Munajatxon Yo'lchiyeva 2000-yildan so'ng O'zbekiston davlat konservatoriyasida yana pedagogik faoliyatini davom ettiradi. Shogirdlari Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansambli xonandasi To'rabek Muxtorov, Erkin Ismoilov, Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori Mamlakat Ulasheva, "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivalining III o'rin sovrindori Ulug'bek Elmurodzoda, "Nihol" mukofoti sovrindorlari Sayyod Jo'rayev, Adolat Ismoilova, Dilnoza Akbarova, Maftuna Ahrorova, Gulmira Abdulahatova, Diyora Muxtorova, Mohlaroyim Bo'tayeva, Yosh maqom ijrochilari Keshpublik ko'rik-tanlovi I o'rin sohibi, Ozarbayjonda o'tadigan "Mug'om" festivalida III o'rinni egallagan Do'stmurod Negmuradov, Yunus Rajabiy nomidagi maqom ansambli xonandasi Durdona Shodmonova va yana yuzga yaqin shogirdlari respublika ixtisoslashgan san'at maktablari, maqom ansambllarida, bolalar musiqa va san'at maktablarida faoliyat yuritib kelmoqdalar. O'zbekiston Qahramoni, O'zbekiston xalq artisti, Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'ati instituti professori Munajat Yo'lchiyevaning mehnat faoliyatiga nazar solsak, ko'p yillar davomida faqat maqom san'ati uchun umrini bag'ishlaganiga guvoh bo'lamiz.

- 1980-1982-yillar maqom ansambli xonandasi;
- 1982-2014-yillarda Muhitdin Qoriyoqubov nomidagi Akademik va xalq badiiy jamoalari direksiyasi yakkaxon xonandasi;
- 2014-2015-yillarda O'zbekiston davlat konservatoriyasi "An'anaviy ijrochilik" kafedrasida mudiri vazifasini bajaruvchisi;

- 2015-2016-yillarda O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “An’anaviy ijrochilik” kafedrasida katta o‘qituvchisi;
- 2016-2017-yillarda O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “An’anaviy xonandalik” kafedrasida mudiri vazifasini bajaruvchisi;
- 2017- 2019-yillarda O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “An’anaviy xonandalik” kafedrasida mudiri;
- 2019-2020-yillarda O‘zbekiston davlat konservatoriyasi “Maqom xonandaligi” kafedrasida mudiri;
- 2020-yildan hozirga qadar Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti “Maqom xonandaligi” kafedrasida professori lavozimida faoliyat yuritib, yosh shogirdlariga tahsil berib kelmoqda

Xulosa

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, xonanda o‘z ijodiy faoliyati davomida Germaniya, Avstriya, Fransiya, Belgiya, Gollandiya, Ispaniya, Italiya, Shveytsariya, Janubiy Koreya, Xitoy, Hindiston, Pokiston, Braziliya, Marokash, Ukraina, Rossiya, Iordaniya, Tunis kabi yana bir qancha davlatlarda o‘zbek xalqining milliy merosi bo‘lgan Shashmaqom va xalq yo‘lidagi ashulalari bilan yakkaxon konsert dasturlarida va nufuzli festivallarda chiqishlar qilib kelmoqda. Munajat Yo‘lchiyevaning ijodi nafaqat xalqimiz, balki xalqaro miqyosda ham e’tirof etilmoqda. An’anaviy xonandalik va maqom ijrochiligi sirlarini o‘rgangan san’atkor, milliy mumtoz qo‘shiqlar, maqomlar, katta ashulalarni maromiga yetkazib kuylaydi. Noyob ovozi, tuyg‘ularga boy ijrosi yurakdan kuylash uslubi musiqa ixlosmandlarini hali-hanuz o‘ziga rom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ulasheva M. Munajat Yo‘lchiyeva. Monografiya. T., 2024
2. Rajabov I. Maqomlar. T.: San’at nashriyoti, 2006.
3. JOURNAL OF NEW CENTURY INNOVATIONS
<http://www.newjournal.org/> Volume–21_Issue-1_January_2023
4. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. T.:1963
5. O.Matyoqubov “Maqomot” Monografiya T., 2004 y
6. “Hurriyat” gazetasi. 2009. 01.14.

7. “Ma’rifat” gazetasi. 17.11.2001-yil.
8. O.Matyoqubov “Dodekagramma”.T., 2005
9. Qosimova-Isroilova H. An’anaviy hofizlik san’ati (Yakkaxon qo’shiqchilik). T., 2007
10. www.hidoyat.uz
11. <http://gulobodtongi.uz/madaniyat/dashti-navo-tarixi>
12. R.Usmonova. “Toshkent haqiqati”gazetasi.

